



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohonova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejarov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

2. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни. <https://lex.uz/docs/5013007>.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Педагог мақоми тўғрисида”ги қонуни. // <https://lex.uz/docs/6786401>. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.02.2024 й., 03/24/901/0082-сон; 24.10.2025 й., 03/25/1091/0969-сон)
4. Ўзбекистон Республикасининг “Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида”ги қонуни. // <https://lex.uz/docs/6952742>. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.06.2024 й., 03/24/931/0402-сон)
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Коррупцияга қарши курашиш бўйича Миллий кенгаш йиғилишидаги маърузаси. //05.03.2025 йил. <https://president.uz/uz/lists/view/7924>.
6. https://t.me/antikor_uzb.
7. Ўзбекистон Республикасида Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида миллий маъруза Ахборот таҳлилий маълумот. //Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги, 2025. 13-б:
8. <https://president.uz/uz/lists/view/7924>
9. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг 2024 йил 7 майдаги № 19/10-24-63 сонли маълумотномаси.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 27 ноябрдаги “Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати тизими самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-200-сонли Фармони //http://www.lex.uz.

UDK: 336.1

AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGI VA MOLIYAVIY MADANIYATI O‘RTASIDAGI OSHIRISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH

ОЦЕНКА ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ И ФИНАНСОВОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ

ASSESSMENT OF OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE FINANCIAL LITERACY AND FINANCIAL CULTURE OF THE POPULATION

Abdurazakova Farangis Dilshod qizi

O‘zMU, Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo‘nalishi talabasi
Normurodov X.E. O‘zMU katta o‘qituvchisi

Anotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim, jamiyatni taraqqiyot tomon yetaklayotgan moliyaviy savodxonlik va aholining moliyaviy madaniyatini oshirish mavzusi yoritiladi. Aholining moliyaviy bilim va ko‘nikmalarini oshirishda bir qancha usullar ko‘rib chiqilgan va moliyaviy madaniyatni baholash uchun so‘rovnoma o‘tkazilgan. Moliyaviy boshqarishda xorijiy tajribalarni tahlil qilish va uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash uchun takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, moliyaviy madaniyat, amaliy moliyaviy ko‘nikmalar, raqamli moliyaviy xavfsizlik, investitsion savodxonlik, kredit boshqaruvi, moliyaviy risklar, iqtisodiy barqarorlik, raqamli to‘lovlar

В данной статье рассматривается тема повышения финансовой грамотности и финансовой культуры населения Узбекистана, которая играет важную социально-экономическую роль и способствует развитию общества. В работе проанализированы

различные методы улучшения финансовых знаний и навыков населения, а также был проведён опрос для оценки финансовой культуры. Кроме того, рассмотрен зарубежный опыт в сфере финансового управления и предложены рекомендации по его применению в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: финансовая грамотность, финансовая культура, практические финансовые навыки, цифровая финансовая безопасность, инвестиционная грамотность, управление кредитами, финансовые риски, экономическая стабильность, цифровые платежи

This article discusses the topic of improving financial literacy and the financial culture of the population in Uzbekistan, which plays an important socio-economic role and contributes to the country's development. Various methods of enhancing people's financial knowledge and skills, as well as a survey was conducted to assess financial literacy. In addition, the study examines foreign experience in financial management and provides recommendations for applying it in the context of Uzbekistan.

Key words: financial literacy, financial culture, practical financial skills, digital financial security, investment literacy, credit management, financial risks, economic stability, digital payments

Moliyaviy savodxonlik — bu pulni to‘g‘ri boshqarish ko‘nikmalari, ya‘ni daromad, xarajat, jamg‘arma, qarz, sarmoya va moliyaviy xavflarni tushunish va oqilona qaror qabul qilish qobiliyatidir. Bugungi kunda har bir inson uchun moliyaviy bilim muhim sanaladi. Chunki bu yo‘lda birgina inson yoki oila emas balki butun davlatning boyishi va kambag‘allik qatlamini qisqarishi bunga bog‘liq masala hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, nafaqat O‘zbekiston balki butun dunyoda moliyaviy savodxonlik asosiy rol ni egallab kelmoqda. Bankdan kredit shakllarini to‘g‘ri olish, jamg‘arish va albatta ishonchli investitsiya kiritish iqtisodiy barqarorlikni oshirishning omili hisoblanadi. Bu jihatga qaratilgan bir qancha harakatlar o‘z samarasini bergan bo‘lsada, texnologiya rivojlanishi va fuqarolarning soni ko‘payish natijasida yangi qatlam paydo bo‘lishi bunga bo‘lgan talabni yanada oshiryapti. Bu mavzuni dolzarbligini yana bir bor prezidentimiz Sh.M.Mirziyayevning ta‘kidlagan so‘zlaridan bilib olishimiz mumkin “Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish — bu nafaqat shaxsiy farovonlik, balki davlatning iqtisodiy barqarorligi uchun ham muhim omil [1].” Shuning uchun aholining moliyaviy ta‘limini kuchaytirish dolzarb masala sifatida qabul qilindi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) 2023-yilgi ma‘lumotlariga ko‘ra, moliyaviy savodxonligi yuqori bo‘lgan shaxslar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelganda boshqalarga nisbatan 2 barobar kam qarz muammosiga duch keladi [2]. AQSH, Germaniya va Kanada kabi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda bu tizim ancha vaqtlardan beri o‘z faoliyatini olib boryapti va o‘z natijalarini ko‘rsatyapti. Masalan, birinchi navbatda AQSH ni oladigan bo‘lsak. U yerda moliyaviy ta‘lim olgan talabalarning qarzini qayta to‘lashda muammoga duch kelish ehtimoli 20% ga kamaygan [3]. Germaniyada esa moliyaviy savodxonligi yuqori aholi orasida 58% odam har oy o‘z daromadining bir qismini jamg‘aradi, past savodxonlikka ega guruhda esa bu ko‘rsatkich faqat 24% [4]. KMIA (Kanada moliyaviy iste‘molchilar agentligi) 2022-yilgi hisobotiga ko‘ra, Kanadada kattalarning 65% dan ortig‘i moliyaviy qaror qabul qilishda o‘zini ishonchli his qiladi. Bu IHTT davlatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Jamiyatning moliyaviy madaniyatini oshirish mavzusi xorijning iqtisodiy adabiyotida ham keng qamrovli mavzulardan biridir va bu borada bir qancha olimlar va iqtisodchilar tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Moliyaviy savodxonlikning asosi bu mablag‘ni to‘g‘ri boshqarishdir. Bu haqida AQSH iqtisodchisi Deyv Ramseyning ham shunday fikri shunday. Moliyaviy muammolarning aksariyati pul yetishmasligidan emas, balki uni boshqarishni bilmaslikda deb yuritadi. [1]

D.Ramsey o‘z tadqiqotida moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lmagan qatlam moliyaviy muammoga pul yetishmovchiligi sabab qilib keltiradi. Lekin bu aslida mablag‘ni to‘g‘ri boshqara olish muammoning yechimi bo‘lishini ta‘kidlaydi.

Yana bir olis xorij mamlakati olimi Oliviya Mitchell moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan insonlar keksayganda ham moddiy barqaror hayot kechiradi kabi tadqiqotini taqdim qiladi.[2]

Yaqin xorijdagi O.S. Belokrilova va V.P. Kuznetsova kabi iqtisodchilar Rossiya tadqiqotlari natijasida moliyaviy savodxonlik darajasi past bolgan aholi guruhlari moliyaviy xizmatlardan samarali foydalana olmasligi, bu esa ularning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklashi haqida so‘z yuritgan.[3]

Qozog‘istonlik A.Bisenbayeva moliyaviy savodxonlikni oshirish faqat ta‘lim tizimini emas, balki har bir fuqaroning ma‘suliyatidir. Buni erta yoshdan boshlash kerak deb ta‘riflanadi [4].

Moliyaviy savodxonlik va jamiyatning moliyaviy madaniyatini kuchaytirish va iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash borasida qator milliy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan:

X.A.Qobulov aholi moliyaviy savodxonligini oshirish jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanishi haqida xulosa yuritgan[5].

M.S.Xotamqulova moliyaviy savodxonligi bo‘lgan odamlarni moliyaviy firibgarliklarga kamroq duch kelishi. Moliyaviy savodxonlikning mustahkam asosi ta‘limga yoki pensiyaga jamg‘arish, qarzlarni oqilona boshqarish va ish boshlash kabi turli hayot maqsadlarini qo‘llab quvvatlay olishini tahlil qilgan.[6]

Jahon va milliy iqtisodchilar tahlili va olib borilgan ishlar natijasini ko‘rib chiqqan holda, mavzu asosida tadqiqotlarni to‘liq yoritilmagan. Shu boisdan mazkur muammo ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, yanada chuqurroq tahlilni talab etadi.

Moliyaviy savodxonlik nafaqat ijtimoiy balki iqtisodiy tomonlama ham muhimdir. Aholining moliyaviy savodxonligi – zamonaviy iqtisodiyotda aholi farovonligi va iqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Strategiya va tahlillarni taqdim etishdan avval moliyaviy savodxonlik me‘zonlari, o‘lchamlari, turlari va yo‘nalishlarining har biri haqida ma‘lumot keltirildi

Birinchi navbatda moliyaviy savodxonlikning me‘zonlari va o‘lchamlarini ko‘rib chiqilgan. Moliyaviy savodxonlikning asosiy tarkibiy qismi shaxsning foiz va murakkab foiz, inflyatsiya, risk–daromad bog‘liqligi, diversifikatsiya, kredit shartlari, qarz yuklamasi, sug‘urta mexanizmlari, soliq tizimi, valyuta kurslari va makroiqtisodiy omillarni tushunishidir. Bu bilimlar testlar va nazariy savollar orqali baholanadi. Byudjet yuritish, ongli xarajat qilish, jamg‘arma qilish, favqulodda fond yaratish, qarzlarni o‘z vaqtida to‘lash, sarmoyani oqilona boshqarish kabi ko‘nikmalar ushbu mezonlarga kiradi. Bu shaxsning real hayotdagi moliyaviy intizomini aks ettiradi va odatda amaliy vaziyatlar hamda so‘rovnomalarni orqali aniqlanadi. Shaxsning pulga, riskka, tejamkorlikka, investitsiyaga va qarzga bo‘lgan munosabati moliyaviy savodxonlikning muhim qismidir. Uzoq muddatli fikrlash, moliyaviy mas‘uliyat va riskga ehtiyotkor yondashuv Likert shkalasi asosida baholanadi. Elektron to‘lovlar, mobil banking, onlayn banking xavfsizligi, kibertahdidlardan himoya, phishing va firibgarliklarni tanish, raqamli kredit va investitsiya xatarlarini tushunish ushbu o‘lchamni tashkil etadi. Baholash raqamli operatsiyalar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi. Shaxsning moliyaviy barqarorligi — favqulodda jamg‘arma mavjudligi, qarz yuklamasining pastligi, moliyaviy stress darajasi, kutilmagan xarajatlarni qoplash imkoniyati — moliyaviy savodxonlikning yakuniy natijasini ko‘rsatadi. Banklar, sug‘urta kompaniyalari, kredit byurolari, davlat moliyaviy siyosati va moliyaviy xizmatlarning ishlash tamoyillarini tushunish shaxsning moliyaviy tizimdan to‘g‘ri foydalanishiga yordam beradi.

Daromad–xarajatlarni rejalashtirish, byudjet tuzish, jamg‘arma qilish, moliyaviy xavfsizlik yostig‘i yaratish, foiz, inflyatsiya va valyuta kurslari bo‘yicha asosiy tushunchalarga ega bo‘lish. Bu kundalik moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi. Kredit turlari, foiz stavkalari, to‘lov grafigi, qarz yuklamasi, kredit reytingi va mas‘uliyatli qarz olish tamoyillarini tushunish. Bu shaxsni ortiqcha qarzga botishdan himoya qiladi. Investitsiya turlari, portfel boshqaruvi, diversifikatsiya, risk–daromad muvozanati va sarmoya strategiyalarini tanlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar. Uzoq muddatli moliyaviy farovonlikni ta‘minlaydi. Hayot, sog‘liq, avto va mulk sug‘urtasi turlari, risklarni baholash va sug‘urta shartlarini tahlil qilish. Bu kutilmagan moliyaviy xavflardan himoya yaratadi. Onlayn to‘lovlar, mobil banking, elektron hamyonlar, fintex xizmatlari, onlayn investitsiyalar va kibertahdidlardan himoyalaniшни o‘z ichiga oladi. Firibgarlik va phishingdan saqlanish muhim o‘rin tutadi. Soliq turlari, imtiyozlar, moliyaviy shartnomalar, huquqiy normalar va moliyaviy institutlar faoliyatini tushunish. Bu moliyaviy xizmatlardan to‘g‘ri foydalanish imkonini beradi. Pensiya

jamg‘armalari, uzoq muddatli investitsiyalar, hayotiy sikl bo‘yicha byudjetni boshqarish va kelajakdagi moliyaviy xavfsizlikni rejalashtirishni qamrab oladi.


$Ms=f(MT, SDT, Mam)$ Moliyaviy savodxonlik milliy tizim, standart ta‘lim darajasi va maxsus amaliyot samaralari o‘rtasidagi konfiguratsion bog‘liqlikdan iborat bo‘ladi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi xalqaro, mintaqaviy va milliy strategiyalar haqida to‘xtalib o‘tamiz. Bugungi kunda global iqtisodiyotning tezkor raqamlashtirilishi, iste‘mol kreditlari hajmining oshishi va moliyaviy xizmatlarning murakkablashuvi moliyaviy savodxonlikni har bir davlat uchun ustuvor vazifaga aylantirmoqda. Xalqaro tashkilotlar — OECD, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi va Osiyo Taraqqiyot Banki — moliyaviy savodxonlikni oshirishni aholining farovonligini ta‘minlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda eng muhim omil sifatida baholab kelmoqda. Xalqaro tajribada moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishdagi eng muhim strategik omillar shakllangan. Ta‘lim tizimiga integratsiya qilish-boshlang‘ich ta‘limdan boshlab keyingi bosqichlarga bo‘lgan davrda moliyaviy savodxonlikni bosqichma-bosqich o‘rganish-o‘rgatish eksperiment va laboratoriya, tadbiiq etish (amalga oshirish) va korriktirovka kabi funksional algoritmdan tashkil topgan bo‘lishi kerak. Moliyaviy tizimning milliy raqamli platformalarini yaratish ular orqali interaktiv darslar, testlar va amaliy simulyatorlar aholining keng qatlamiga yetkaziladi. Banklar, fintechlar va davlat o‘rtasidagi hamkorlik-bu aholiga kreditlardan oqilona foydalanish, raqamli to‘lovlar xavfsizligi va jamg‘arma madaniyatini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli o‘quv kompaniyalarini olib borish imkonini beradi. Shuningdek, ko‘plab rivojlangan davlatlar moliyaviy xatti-harakatlarni o‘zgartirishga qaratilgan (behavioral finance) dasturlarni qo‘llab, aholining qaror qabul qilishdagi psixologik xatolarini kamaytirishga e‘tibor qaratmoqda.

Mintaqaviy strategiyalarda eng muhim yo‘nalishlardan biri-ta‘lim standartlarini yagona yondashuv asosida shakllantirishdir. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida moliyaviy savodxonlik bo‘yicha umumiy kompetensiyalar modeli qo‘llanilib, barcha a‘zo davlatlarda o‘qituvchilar malakasini oshirish va o‘quv dasturlarini bir xil mezonga moslashtirish yo‘lga qo‘yilgan. Mintaqaviy strategiyalar moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va raqamli xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni o‘z ichiga oladi. Xususan, MDH mamlakatlari o‘rtasida yoshlarga mo‘ljallangan qo‘shma o‘quv platformalari yaratilgan bo‘lib, bu aholining turli yosh guruhlari o‘rtasida moliyaviy savodxonlik bo‘yicha teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Mintaqalararo hamkorlik orqali ishlab chiqilgan ushbu dasturlar moliya bozorlarining shaffofligini oshirish, aholining moliyaviy xavf-xatarlarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga yordam bermoqda.

Milliy strategiyalar ham ta‘lim tizimiga moliyaviy bilimlarni integratsiya qilishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, davlat organlari tomonidan aholining keng qatlamlari — yoshlar, tadbirkorlar, nafaqaxo‘rlar va kam ta‘minlangan oilalar uchun maxsus o‘quv modullari ishlab chiqiladi. Milliy strategiyalarning yana bir muhim yo‘nalishi — raqamli moliya infratuzilmasini rivojlantirish va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashdir. Mobil ilovalar, onlayn to‘lovlar, raqamli bank xizmatlari ommalashib borayotgani sababli, fuqarolarning moliyaviy firibgarliklardan himoyalaniish bo‘yicha xabardorligi oshiriladi. Davlat tomonidan masofaviy ta‘lim platformalari, interaktiv testlar va ommaviy axborot kompaniyalari orqali aholining amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash choralari ko‘riladi. Bundan tashqari, bozorida ishonchni oshirish, shaffoflikni kuchaytirish va aholining moliyaviy qarorlar qabul qilish madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Moliya vazirligi, Markaziy bank va boshqa idoralar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali monitoring, baholash va samaradorlikni oshirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Aholining moliyaviy madaniyatini baholashda so‘rovnoma o‘tkazildi va tahlil qilindi. Moliyaviy savodxonlik darajasi shaxsiy rivojlanish, kasbiy shakllanish va ijtimoiy faollik jarayonlari eng faol kechadigan demografik guruh, ya‘ni talabalar orasida o‘tkazildi. O‘tkazilgan sorovnomada 18 dan 20 yoshgacha bo‘lgan 150 nafar yoshlar orasida amalga oshirildi. Ishtirokchilarning yoshi bo‘yicha taqsimoti quyidagicha: 40 nafar 18 yosh, 80 nafar 19 yosh, 30 nafar 20 yosh. Sorovnomada 20 ta savolni o‘z ichiga olgan bo‘lib, har bir savol uchun to‘g‘ri javob maksimal 30 ball bilan baholandi. Ishtirokchilarning umumiy o‘rtacha balli 19,8 ni tashkil etdi, bu esa yoshlarning moliyaviy savodxonlik darajasi o‘rtacha ekanligini ko‘rsatadi.



1-rasm. So'rovnomaga asoslangan tahlil ma'lumotlari.

Savol turlari bo'yicha o'rtacha va maksimal ball belgilangan. Tahlil ma'lumotlari bo'yicha moliyaviy tushuncha – 1-savol, 1 dan 5 gacha ball berilgan. O'rtacha ball 3,1 bo'lib, maksimal 5 ballning 62 % ini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich yoshlarning moliyaviy asosiy tushunchalarni yetarlicha anglashini, ammo yanada chuqur bilimga ega bo'lishlari kerakligini bildiradi.

Moliyaviy ko'nikmalar – 2-savol, 6 dan 10 gacha ball bilan baholangan. O'rtacha ball 6,1 bo'lib, maksimal 8 ballning 76 % ini tashkil qiladi. Bu yoshlarning amaliy moliyaviy ko'nikmalarga ega ekanligini, ya'ni byudjet tuzish, xarajatlarni boshqarish va moliyaviy qaror qabul qilishda nisbatan ishonchli ekanligini ko'rsatadi.

Moliyaviy xulq-atvor – 3-savol, 11 dan 15 gacha ball bilan baholangan. O'rtacha ball 4,3, maksimal 7 ballning 61 % ini tashkil qiladi. Bu yoshlarning moliyaviy odatlari va xulq-atvori o'rtacha ekanligini, tejash va xarajatlarni oqilona rejalashtirishda qo'shimcha maslahat va treninglarga ehtiyoj borligini bildiradi.

Moliyaviy munosabat – 4-savol, 16 dan 18 gacha ball bilan baholangan. O'rtacha ball 3,6 bo'lib, maksimal 6 ballning 60 % ini tashkil qiladi. Bu yoshlarning pulga bo'lgan munosabati, moliyaviy qadriyatlar va uzoq muddatli maqsadlarni belgilashdagi darajasi o'rtacha ekanligini ko'rsatadi.

Raqamli savodxonlik – 5-savol, 19 va 20-savollar bo'yicha 2,7 ball, maksimal 4 ballning 67,5 % ini tashkil qiladi. Bu yoshlar raqamli moliyaviy vositalardan foydalanishda nisbatan yetarli darajada qobiliyatga ega ekanligini bildiradi.

Yoshlarning moliyaviy savodxonligi o'rtacha darajada bo'lib, kuchli tomonlari moliyaviy ko'nikmalar va raqamli savodxonlik sohalarida namoyon bo'ladi.

Zaif tomonlar esa moliyaviy tushuncha, xulq-atvor va moliyaviy munosabatlarda ko'zga tashlanadi. Bu yoshlarni moliyaviy bilim va qadriyatlarini chuqurroq egallash, shuningdek, tejash va xarajatlarni oqilona rejalashtirishga yo'naltirilgan qo'shimcha treninglar va seminarlar orqali qo'llab-quvvatlash zarurligini bildiradi.

Moliyaviy savodxonlik oshirishning O'zbekistondagi imkoniyatlari, muammolarini mutanosib taqqoslash, qiymat ko'rsatkichlari, aholining moliyaviy faolligi hamda yo'qotishlarini turli usulda baholashlar orqali amalga oshirish mumkin. Moliyaviy savodxonlik shaxsning o'z mablag'larini samarali boshqarish, xarajat va daromadni rejalashtirish, investitsiya va qarz olish kabi moliyaviy qarorlarni oqilona qabul qilish qobiliyatidir. O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikning ahamiyati aholi turmush darajasini oshirish va iqtisodiy faollikni ta'minlashda tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston respublikasidagi moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi imkoniyatlar:

Moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi imkoniyatlar va muammolar

Moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi imkoniyatlar	
Hukumat va davlat dasturlari	O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari faol ishlamoqda. Masalan, moliyaviy bilim berish, ommaviy seminarlar va onlayn kurslar orqali aholi orasida pulni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati mavjud.
Ta‘lim va internet imkoniyatlari.	Internet va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi yoshlar va kattalarga onlayn treninglar, vebinarlar va elektron kurslar orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish imkonini beradi.
Bank va moliya sektorining rivojlanishi.	Kommerciya banklari va moliyaviy institutlar faoliyat ko‘rsatishi, turli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar taqdim etishi aholi moliyaviy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkonini yaratadi.
Yoshlar va talabalar qiziqishi.	O‘zbekistonda yoshlar moliyaviy mustaqillikka qiziqish bildirayotganligi moliyaviy savodxonlikni oshirishda qulay ijtimoiy muhit yaratadi.
Moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi muammolar	
Moliyaviy savodxonlikning past darajasi.	Ko‘pchilik aholi asosiy moliyaviy tushunchalarni (inflyatsiya, kredit, investitsiya) va raqamli bank xizmatlarini yetarlicha tushunmaydi. Bu moliyaviy qarorlarni oqilona qabul qilishda qiyinchilik tug‘diradi.
Ma‘lumot va ta‘lim yetishmasligi.	Maktab va oliy ta‘lim muassasalarida moliyaviy savodxonlikka oid ta‘lim dasturlari cheklangan. Natijada yoshlar va kattalarda bilim va ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmagan.
Moliyaviy resurslarga kirish imkonlarining cheklanishi	Ayrim aholi, xususan qishloq joylarda istiqomat qiluvchilar, bank va moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati cheklangan. Bu ularning moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatini pasaytiradi.
Ishonch va moliyaviy madaniyatning pastligi.	Qarz olish, investitsiya qilish va boshqa moliyaviy faoliyatga nisbatan aholi orasida ishonch past. Bu moliyaviy mahsulotlardan samarali foydalanishni cheklaydi.

Asosiy muamolardan tashqari cheka qishloqlardagi aholi investitsiya va mablag‘larni to‘g‘ri boshqarish kabi moliyaviy Savodxonliklarini oshirishning imkoniyatlari biroz cheklangan. Buning asosiy sabablaridan biri — aholi moliyaviy savodxonligini oshirishning institutsional va infratuzilmaviy imkoniyatlarini tenglashtirish talab qiladi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirishning eng ko‘p tavsiya qilinadigan ssenariysi bu xalqaro tajribani O‘zbekistonga qo‘llash bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Moliyaviy savodxonlik rivojlangan davlatlarning me‘zonlari bizning mamlakatimiz sharoitiga to‘g‘ri kelmagani tufayli rivojlanayotgan davlatlar tajribasini O‘zbekistonga qo‘llashni taklif qilingan. O‘zbekistonda dolzarb bo‘lgan muammolardan biri bu aholining moliyaviy texnologiyalardan foydalana olmasligidir. Ta‘lim dasturlariga moliyaviy savodxonlik, elektron xizmatlar, FinTech va iqtisodiy tushunchalarni kiritish, yosh avlod moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishga tayyorlanadi, kelajakda moliyaviy xizmatlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Moliyaviy savodxonlik kurslari, moliyaviy platformalarning samaradorligini, foydalanuvchi tajribasini va qamrovini muntazam baholab borish. Muammoli zonalarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash, moliyaviy xizmatlarni takomillashtirish va aholining ehtiyojlariga moslashuv imkonini beradi.

Xulosa qilish mumkinki moliyaviy savodxonlik bu biznin hayotimizni qamrab olgan, har bir kunimizda foydalanadigan sohadir. Biz xohlaymizmi yo‘qmi bu bilimni bilishimiz bizning hayot tarzimizni yaxshilaydi va keksalik damlarida ham pensiyadan foydalanishimizni va mablag‘ni to‘g‘ri boshqarishimizni ta‘minlaydi. Bu haqida rivojlangan davlatlar misolida ham dolzarbligi yoritilgan. Bunda xorij, MDH va O‘zbekistondagi iqtisodchi olimlarning fikri ko‘rib tahlil qilindi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, moliyaviy tushunchalar, moliyaviy ko‘nikmalar, xulq-atvor va moliyaviy munosabat kabi asosiy komponentlar tizimli ravishda shakllantirilmagach, yoshlarning pul

boshqarish borasidagi qarorlari samarali bo‘lmaydi. Shuningdek, oila, ta‘lim muassasalari, media va davlat dasturlari kabi omillar moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur jarayonlarda raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi, moliyaviy xavfsizlik bo‘yicha ogohlikning oshishi va iqtisodiy innovatsiyalarning joriy etilishi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ayta olamizki, O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni takomillashtirish bo‘yicha salohiyat yuqori bo‘lib, ushbu yo‘nalishda davlat siyosati, xalqaro tashkilotlar tajribasi va zamonaviy ta‘lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar o‘rtasida moliyaviy bilimlarni oshirish, ularda to‘g‘ri moliyaviy xulq-atvorni shakllantirish hamda raqamli moliyaviy xizmatlardan xavfsiz foydalanish madaniyatini rivojlantirish kelgusida ularning iqtisodiy faolligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, moliyaviy savodxonlikni tizimli ravishda rivojlantirish, maktabdan boshlab professional ta‘limgacha bo‘lgan bosqichda integratsiyalashgan o‘quv dasturlarini joriy etish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari uchun qulay, ochiq va interaktiv o‘quv platformalarini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni yanada oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D. Ramsey, *Financial Peace: Managing Money and Avoiding Debt Problems*, USA.
2. O. Mitchell. *Financial Literacy and Well-Being in Later Life* // *Foreign Economic Studies*. 509–525-betlar
3. O.S. Belokrilova, V.P. Kuznetsova, *Financial Literacy and Access to Financial Services in Russia* // *Russian Economic Review*. rreconomic.ru
4. A. Bisenbayeva. *Financial Literacy as Responsibility of Every Citizen* // *Kazakhstan Studies*. bulletin-pedagogic-sc.kaznu.kz
5. X.A. Qobulov. *Moliyaviy savodxonlik va jamiyat rivojlanishi* // *O‘zbekiston Milliy Iqtisodiyot Jurnali* 1-2-betlari.
6. M.S. Xotamqulova. *Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy firibgarliklarning oldini olish* // *O‘zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali*. finance.tsue.u
7. OECD, *Financial Literacy Framework and Indicators*, 2022. OECD/INFE International Survey 2023
8. International Monetary Fund (IMF) // *Financial Literacy and Inclusion Reports*, 2023. Liter.kz
9. World Bank // *Global Financial Literacy Survey*, 2022. openknowledge.worldbank.org
10. *Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) // Financial Literacy Report*, 2023. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/12/oecd-infe-2023-international-survey-of-adult-financial-literacy_8ce94e2c/56003a32-en.pdf
11. Vikipediya. *Raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar bo‘yicha maqolalar*. Vikipediya
12. Centre for Public Impact. *Raqamli boshqaruv va davlat xizmatlarini modernizatsiya qilishga oid tahliliy materiallar*. courier.unesco.org+1
13. UNESCO Courier. *Raqamli savodxonlik, ta‘lim va yoshlarning texnologiyadan foydalanishiga doir maqolalar*. CNBC+1